

## MILLIY IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYALARNING USTUVOR ROLI

**Fazilov Sardor Dilmurod o'g'li**

*Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Tel: +998945851984*

*E-mail: sardorfazilov@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur tezis investitsion loyihalarni baholashning tizimli yondashuviga asoslanadi. Unda diskontlangan pul oqimi, xarajat–foyda tahlili, muqobil variantlarni taqqoslash hamda risk va sezuvchanlik tahlili kabi asosiy baholash usullari qo'llaniladi. Investitsion loyihalar samaradorligini aniqlashda investitsion muhit, texnik-iqtisodiy asoslar, moliyalashtirish manbalari hamda ijtimoiy-ekologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Qaror qabul qilish jarayoni loyiha konsepsiyasini tanlashdan boshlab, pul oqimlarini prognozlash va yakuniy investitsion qarorni qabul qilishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Ushbu yondashuv investorlar uchun mablag'larni oqilona joylashtirish, xatarlardan qochish va investitsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** loyiha, mezonlar konsepsiya, yondashuv, daromad, investitsiya, iqtisodiy o'sish, investitsiya dasturi.

**Аннотация.** Данная диссертация основана на систематическом подходе к оценке инвестиционных проектов. В ней используются такие основные методы оценки, как дисконтированный денежный поток, анализ затрат и выгод, сравнение альтернатив, а также анализ рисков и чувствительности. Инвестиционная среда, технико-экономические основы, источники финансирования и социально-экологические факторы играют важную роль в определении эффективности инвестиционных проектов. Процесс принятия решений охватывает этапы от выбора концепции проекта до прогнозирования денежных потоков и принятия окончательного инвестиционного решения. Такой подход позволяет инвесторам рационально распределять средства, избегать рисков и повышать эффективность инвестиций.

**Ключевые слова:** проект, концепция критериев, подход, доход, инвестиции, экономический рост, инвестиционная программа.

**Annotation.** This thesis is based on a systematic approach to evaluating investment projects. It uses such basic assessment methods as discounted cash flow, cost-benefit analysis, comparison of alternatives, and risk and sensitivity analysis. The investment environment, technical and economic foundations, financing sources, and socio-ecological factors play an important role in determining the effectiveness of investment projects. The decision-making process covers the stages from choosing a project concept to forecasting cash flows and making a final investment decision. This approach allows investors to rationally allocate funds, avoid risks, and increase investment efficiency.

**Key words:** project, criteria concept, approach, income, investment, economic growth, investment program.


### KIRISH

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va rivojlantirishda bugungi kunda asosiy

e'tibor iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar va ularning salmog'i qaratilmoqda. Chunki iqtisodiy o'sishni investitsiyalarning hajmi va ularning tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Shularni inobatga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz iqtisodiy siyosati istiqbolini belgilab berishda ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiyalarni keng jalb etish ayniqsa, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiyoti o'sishini ta'minlash, uni har tomonlama taraqqiy ettirishning zarur sharti va manbai hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion loyihalarni baholash jarayoni bir qator asosiy mezonlar va usullar asosida amalga oshiriladi. Baholashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri — sof joriy qiymat bo'lib, u loyiha kelajakda keltiradigan pul oqimlarining bugungi kunga keltirilgan qiymatini ifodalaydi. 1-diagramma.



*1-diagramma. Investitsion loyihalarni baholashning ko'rsatkichlarining nisbiy ahamiyati*

Shuningdek, ichki daromadlilik stavkasi investitsiya birligiga nisbatan olinadigan kutilayotgan daromad darajasini ko'rsatadi. To'liq qoplash muddati loyihaga sarflangan investitsiyaning qancha vaqt ichida qaytishini aniqlashda qo'llaniladi.

Ko'rsatkich	Mazmuni	Baholashdagi ahamiyati
Sof joriy qiymat	Kelajak pul oqimlarining bugungi kunga keltirilgan sof qiymati	Loyiha qabul qilinishi yoki rad etilishini aniqlaydi

Ichki daromadlilik stavkasi	Investitsiya birligiga to'g'ri keladigan kutilgan daromad me'yor	Loyihaning daromadlilik darajasini baholaydi
Qoplash muddati	Investitsiya sarflarining qaytish davri	Likvidlik va xavf darajasini ko'rsatadi
Daromadlilik indeksi	Daromadning investitsiya xarajatlariga nisbati	Resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlaydi

Daromadlilik indeksi esa har bir investitsiya birligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadning uning xarajatiga nisbatan qanchalik yuqoriligini baholaydi. Loyihalarni tahlil qilishda bir nechta baholash usullari qo'llanadi. Diskontlangan pul oqimi tahlili kelajakdagi pul oqimlarini bugungi qiymatga keltirish orqali loyiha samaradorligini aniqlaydi. Variantlar mavjud bo'lgan holatlarda variantlarni taqqoslash usuli eng maqbul loyihani tanlash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, risk va sezuvchanlik tahlili loyihaning amalga oshishiga ta'sir qiluvchi xavf omillari, noaniqliklar va ularning ehtimoliy ta'sir darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

## XULOSA

Investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil qilish loyihaning iqtisodiy samaradorligini har tomonlama baholash imkonini beradi. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar orqali loyihaning daromadlilik darajasi, investitsiya resurslarining qaytish muddati va ulardan foydalanish samarasi aniqlanadi. Ushbu yondashuv investitsiya qarorlarini qabul qilishda xavflarni kamaytirish, mablag'larni oqilona taqsimlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy tahlil natijalari investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sunatullayev A.Y. "Investitsiya loyihalari tahlili", Toshkent, 2020.
2. Gulizahro T. The importance of developing the exchange mechanism and online trade in the E-commerce system (in the example of grain trade) //Raqqamli iqtisodiyot (Sifrovaya ekonomika). – 2023. – №. 2. – S. 14-20.
3. Farid, N., Javoxir, R., Abbosxon, A., & Gulizahro, T. (2025). Ta'minot zanjirida vmi logistika texnologiyasidan foydalanishni afzalliklari. Fan va Tadqiqot Samaralari, 2(4), 91-93.
4. Jo'rayev A., "Investitsion faoliyat va moliyaviy boshqaruv", TDIU, 2019.
5. Turaeva G. K. Aktualnost obespecheniya stabilnosti proizvodstva zerna v natsionalnoy ekonomike //Ekonomika i sotsium. – 2024. – №. 2-1 (117). – S. 1387-1394.